

Buxoro davlat pedagogika instituti talabalar turar joyi

Institutda jami 400 o‘ringa mo‘ljallangan 1 ta to‘rt qavatli binoda talabalar turar joyi faoliyat ko‘rsatmoqda.

Talabalar turar joyi Buxoro shahar Piridasgir ko‘chasi 2-uyda, joylashgan.

Institut talabalar turar joyida “Ma’naviyat va ma’rifat”, Besh muhim tashabbus xonalari qattiq va yumshoq mebellar, kerakli jihozlar bilan ta’minlangan. Talabalar turar joyida institut kutubxonasi filiali tashkil qilingan bo‘lib, 300 dan ortiq tegishli adabiyotlar bilan boyitilgan.

Turar joyda talabalarning madaniy dam olishlari uchun barcha qavatlarga televizorlar qo‘yilgan va barcha xonalar yangi yumshoq mebellar bilan ta’minlangan.

Talabalar uchun barcha qavatlarda yuvinish xonalari mavjud va ular issiq suv bilan ta’minlangan. Talabalar uchun yotoqxonada o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan keng oshxonalar mavjud. Har bir qavatda muzlatgichlar, va elektr plitalar bilan jihozlangan har bir qavatda ikkitadan oshxona mavjud. Kir yuvish xonalari TTJ talabalari uchun bepul taqdim etiladi. Talabalar hayoti quvnoqlik bilan to‘la bo‘lib, talabalar o‘qishdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlari uchun ma’naviy-ma’rifiy, sport va musiqiy kechalar muntazam tashkil etib boriladi. Talabalar turar joyi WI-FI orqali internet tarmog‘iga ulangan istiqomat qiluvchi talabalar doimiy tarzda foydalanishlari mumkin.

Talabalar turar joyining xonalari 2, 3 va 4 kishiga mo‘ljallangan. Talabalar turar joyi bozor va do‘konlarga yaqin masofada joylashgan. Talabalar darsdan bo‘sh vaqtlarida Institut sport zali imkoniyatlaridan foydalanishlari mumkin. Talabalar kengashining “Talabalar turar joyi” yetakchisi talabalarni qo‘llab-quvvatlash va yordam ko‘rsatishga mas’ul bo‘lib, yotoqxonada yashovchi talabalar hayotini boyitishga intiladi. Yotoqxonada ma’muriyati tomonidan qat’iy qonun-qoidalar o‘rnatilgan va unga ko‘ra talabalar qat’iy tartib-intizomga rioya qilishlari shart. **yotoqxonada hududida 24 soatlik xavfsizlik xizmati** mavjud. Maxsus ruxsatnomasiga ega bo‘lmagan shaxslar yotoqxonaga kirishlari qat’iyan man etiladi.